



## DAVLATLARNING IJTIMOYIY VA INNOVATSION SOHALAR STATISTIKASI

**Kolliyeva Durdona A'zam qizi**

Termiz davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13995807>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20- Oktyabr 2024 yil

Ma'qullandi: 23- Oktyabr 2024 yil

Nashr qilindi: 26- Oktyabr 2024 yil

### KEY WORDS

*Ijtimoiy funksiyasi, ijtimoiy soha, innovatsiya sohasi, turizm, sug'urta, statistika.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada rivojlangan mamlakatlar va davlatimizning ijtimoiy, innovatsion sohalari statistikasi haqida olib boriladi. Maqolada ushbu mavzuga oid tushunchalarni, davlatlarning ko'rsatkichlarini va boshqa ma'lumotlar haqida yoritib berilgan.*

**Ijtimoiy funksiyasi** – ijtimoiy xizmatlarning xususiyati shundan iborat ediki, davlat insonga u tomonidan turmush kechirishning muayyan standartlariga erishish imkoniyati yo'qligini shunchaki qoplabgina qolmasdan, balki mazkur standartlarga erishishi uchun shart-sharoitlarni faol shakllantirishi zarur edi. Bunda davlat barcha ijtimoiy guruhlar uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi.

**Ijtimoiy soha** sog'liqni saqlash, ta'lim, uy-joy-kommunal xo'jaligi, madaniyat, sport va turizm, ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minotini mujassamlashtirgan.<sup>1</sup>

**Innovatsiya** (inglizcha . innovationas — kiritilgan yangilik, ixtiro) — 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalarda va faoliyat doiralarida qo'llanishi.<sup>2</sup>

**Turizm** ([fransuzcha](#): our — sayr, sayohat), sayyohlik — sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiyamaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda 24 soatdan kam bo'lmagan va 365 kundan oshmagan holda sayohat qilishi tushuniladi. Turizmning tarixi [XIX asr](#) boshlariga borib taqaladi. Dastlab [Angliyadan Fransiyaga](#) uyushgan sayyohlik tashkil etilgan (1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruxlari AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi. "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga

<sup>1</sup> G.Q.Abdurahmonova va X.X.Abduramanov. Ijtimoiy sohalarda va inson taraqqiyoti, T. 2018

<sup>2</sup> O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan: klassik yo'nalish (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent; Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent). Bu yo'nalish eng qadimgi yodgorliklar va boshqa tarixiy-madaniy obidalarga tashrif bilan bog'liq; ekologik turizm yo'nalishi (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo'riqxonasi, Buxoro viloyatidagi qo'riqxonalar). Bu yo'nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay g'amda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog'liq; arxeologik turizm yo'nalishi (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Samarqand hududdari bo'ylab). Bu yo'nalish O'zbekistonning eng qad. topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo'yadi; ekstre mal turizm yo'nalishi (Chimyon, Farg'ona vodiysi, Orol bo'yi, Buxoro, Navoiy viloyati hududlari bo'ylab); liniy turizm yo'nalishi (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Toshkent) — mamlakatimizdagi tarixiy diniy obidalarini ziyorat qilish bilan bog'liq<sup>3</sup>.

**Sug'urta** — [tabiiy ofatlar](#) ([zilzila](#), suv toshqini, yog'in va boshqalar), har xil baxtsiz hodisalar ro'y berishi natijasida ko'rilgan zararni qoplash va boshqa pul qoplamalarini to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish va undan foydalanish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar tizimi. Sug'urta ko'p asrlik tarixga ega. Sug'urta muassasalari dastlab o'rta asrlarda, dengiz orqali olib boriladigan savdodagi xavfxatarlar bilan bog'liq holda paydo bo'ldi. Keyinchalik boshqa sohalarga ham yoyildi. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida sug'urta fuqarolarning manfaatlarini ishonchli himoya etuvchi vosita bo'lgan. Sug'urta-jismoniy va yuridik shaxslar to'lagan pul mukofotlari fondi xisobidan, muayyan sug'urta xodisasi yuzaga kelganda ularning mulkiy manfaatlarini himoya qilish tushuniladi.

**Statistika** (lot. ctatus — boyluk, davlat) — 1) turli hodisalar va jarayonlarni miqdoriy hisoblash, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish yo'li bilan ijtimoiy hayotning umumiy qonuniyatlarini o'rganadigan ijtimoiy fanlar tarmog'i. Tor ma'noda Statistika bironbir hodisa yoki jarayon to'g'risidagi jamlanma ma'lumotlar (ko'rsatkichlar) majmui (to'plami)ni bildiradi. Statistika murakkab va sertarmoq fanlar majmuidan iborat bo'lib, ijtimoiy hayotning xilmaxil hodisalarini o'rganadi va tahlil etadi.<sup>4</sup>

Ijtimoiy va innovatsiya sohasini AQSH, Kanada va O'zbekiston davlatlari o'rtasida o'rganib chiqamiz. Har bir davlat bu sohalarga qancha mablag' sarflaganini ko'rib chiqamiz. Buning uchun saytlardan olingan ma'lumotlarni Microsoft Excel dasturiy ta'minotiga to'pladik. (1-2-3-jadvallar)

1-jadval

**AQSh ushbu ikki sohaga ajratgan mablag'lar hajmi (dollar)<sup>5</sup>**

Soha	2019	2020	2021	2022	2023
Ijtimoiy	1,5 trln	1,6 trln	1,5 trln	1,6 trln	1,7 trln
Innovatsiya	580 mlrd	500 mlrd	600 mlrd	700 mlrd	800 mlrd



AQSH har ikki sohaga ham yetarlicha mablag' sarflagan. Umumiy qilib olganda ijtimoiy sohasiga o'rtacha 1,58 trln.dollar sarflagan, innovatsiya sohasiga esa o'rtacha 636 mlrd.dollar sarf qilgan.

2-jadval

**Kanada sarflagan mablag' hajmi (mlrd. dollar)<sup>6</sup>**

Soha	2019	2020	2021	2022	2023
Ijtimoiy	130	150	170	190	210
Innovatsiya	10	12	15	18	20



Kanada ham har ikki sohaga ham yetarli miqdorda mablag' sarflagan. Umumiy qilib olganda ijtimoiy sohasiga o'rtacha 170 mlrd.dollar sarflagan, innovatsiya sohasiga esa o'rtacha 15 mlrd.dollar sarf qilgan.

3-jadval

**O'zbekiston sarflagan mablag'lar hajmi (trln.so'm)<sup>7</sup>**

Soha	2019	2020	2021	2022	2023
Innovatsiya	2	3	4	5	6
Ijtimoiy	3,5	3,6	4,5	6	7



Davlatimiz ham har ikki sohaga ham yetarlicha mablag' ajratgan. Umumiy qilib olganda ijtimoiy sohasiga o'rtacha 4.92 trln.so'm sarflagan, innovatsiya sohasiga esa o'rtacha 4 trln.so'm sarf qilgan.

**Xulosa:** Rivojlangan davlatlar va yurtimizning ijtimoiy va innovatsiya sohalari statistikasini tahlil qildik. Har bir davlat ijtimoiy sohaga ko'proq mablag' ajratgan. Buni yuqoridagi jadvallar orqali bilib olishingiz mumkin. Barcha mamlakatlarda ijtimoiy soha boshqa sohalarga nisbatan yuqori o'rinda turadi. Davlatning asosiy maqsadi aholi farovonligini ta'minlashdan iborat. Shuning uchun ham qaysi davlatni olmaylik hammasida ijtimoiy soha oldingi o'rinlardan joy olgan.

2019-yilda paydo bo'lgan COVID-19 virusi hech qaysi davlatni chetlab o'tmadi. Shuning uchun oxirgi 5-yillikda ijtimoiy sohaga yanada e'tibor kuchaydi. Hatto rivojlangan davlatlar ham ijtimoiy sohaga ko'proq mablag' sarf qilgan. E'tibor qiladigan bo'lsak, pandemiya tugagandan so'ng ham ijtimoiy sohaga ko'proq e'tibor berilgan. Chunki pandemiyadan keyin aholi o'zini tiklab olishi uchun sarf qilindi.

Davlat doimo bir soha bilan cheklanib qolmasligi kerak. Shunday ekan, innovatsion sohani ham rivojlantirish maqsadga muvofiq. Innovatsion soha rivojlansa, aholiga ham yaxshi bo'ladi.

Chunki yurtimizda innovatsiyalar paydo bo'lsa, bo'sh ish o'rinlari yaratiladi, chet el texnologiyalari kirib keladi, jamiyat uchun yengillik va qulayliklar paydo bo'ladi. Innovatsion sohaning afzalliklari ko'p jihatdan muhimdir. Quyidagi asosiy afzalliklarni keltirish mumkin:

1. **Raqobatbardoshlik:** Innovatsiyalar yangi g'oyalar va mahsulotlar yaratish orqali tashkilotlar va mamlakatlar raqobatbardoshligini oshiradi.
2. **Samaradorlik:** Yangi texnologiyalar va usullar ishlab chiqarish jarayonlarini samaraliroq va tejamkor qilishga yordam beradi.
3. **Yangi imkoniyatlar:** Innovatsiyalar yangi bozorlar va mahsulotlar yaratishga imkon beradi, bu esa iqtisodiy o'sishga olib keladi.
4. **Muammolarni hal qilish:** Innovatsiyalar ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi, masalan, barqaror energiya manbalari yoki atrof-muhitni muhofaza qilish.
5. **Sifatni oshirish:** Innovatsion mahsulotlar va xizmatlar sifatini oshirishga yordam beradi, bu esa mijozlar qoniqishini yaxshilaydi.
6. **Ijodkorlik va motivatsiya:** Innovatsiyalar xodimlarning ijodkorligini oshirish va ularni yangi g'oyalar ishlab chiqishga rag'batlantiradi.

Innovatsiya sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun doimiy ravishda yangiliklarni kuzatish va o'zgarishga tayyor bo'lish muhimdir.

Bundan kelib chiqadiki, innovatsion soha har bir davlatga shart va zarur. Har qanday rivojlangan mamlakatlarni qaramaylik, hammasi rivojlanishining asosiy sababi innovatsiyalarning borligida. Bu sohaga yanada ko'proq e'tibor berilsa juda yaxshi bo'lardi.

Men hozirgi kunda universitet talabasiman. O'zimni bu borada taklifimni bildirsam:

Hammamiz bilamizki, universitetga juda ilmiy, yangiliklarga boy yoshlar o'qiydi. Har bir yoshning qo'lidan juda ko'p ishlar keladi. Faqatgina buning uchun ozgina turtki va izlanish talab qiladi. Yoshlar o'rtasida bu sohani rivojlantirish uchun biror darslik ishlab chiqilsa, maqsadga bir qadam tashlagan bo'lar edik. Universitet uchun innovatsion sohaga oid bir darslik ishlab chiqilib, talabalarga shu bo'yicha darslar qo'yilsa yaxshi bo'lar edi. Shu orqali talabalar o'rtasida yangilik yaratish, yangi texnologiyalar yaratish bo'yicha qiziqish yanada ortardi. Ular bu sohada o'zlarini sinab ko'rishgan bo'lardi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.Q.Abdurahmonova va X.X.Abduramanov. Ijtimoiy sohalar va inson taraqqiyoti, T. 2018
2. . L.A.Djo'raeva. SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDAGI ULUSHI HAJMINI MODELLASHTIRISH. Maqola. «JOURNAL OF UNIVERSAL SCIEN»
3. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 3.073/Volume-2, Issue-7
4. L.A.Djo'raeva MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARIGA INVESTITSUYALARNING TA'SIRINI BAHOLASH. Maqola. Mahalliy jurnal
5. «JOURNAL OF UNIVERSAL SCIEN»
6. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4
7. L.A.Djo'raeva . XALQARO KREDIT LINIYALARI VA ULARNI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI, RAQAMLASHTIRISH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA). Maqola. Mahalliy jurnal

8. TA'LIM FIDOYILARI.
9. 4-SON 1-JILD APREL 2024 – YIL 1-QISM
10. ISSN 2181-2160, JIFactor: 8.2
11. L.A.Djo'raeva . PECULIARITIES OF INCREASING THE INCOME OF THE POPULATION IN THE REGION. Maqola. «JOURNAL OF UNIVERSAL SCIEN»
12. ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF 2024 = 5.073/Volume-2, Issue-7
13. L.A.Djo'raeva . XALQARO KREDIT LINIYALARI VA ULARNI KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI, RAQAMLASHTIRISH. (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA). Maqola.(Mahalliy jurnal)
14. Respublika ilmiy-uslubiy jurnal
15. Internet manzillari.Lex.uz.
16. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
17. www.wikipedia.uz
18. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari

